

GREEN ECONOMY**Kholiyorov Urol****Andijan State Technical Institute,
banking and audit direction, 4th year student****E-mail: urol2211@icloud.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15067116>**

Abstract: This article analyzes and relates to the processes of innovation, green technologies and legal norms that promote economic growth based on saving resources and not harming the environment. The green economy is important in ensuring sustainable development, not only economically, but also from a social and environmental point of view.

Key words: economic system, ecology, human life, social justice, economic growth, resource, economy without prejudice.

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА**Халиёров Урол****Андижанский государственный технический институт,
направление банковское дело и аудит,****Студент 4 курса****Э-почта: urol2211@icloud.com**

Аннотация: В этой статье проанализированы и представлены процессы инноваций, зеленых технологий и правовых норм, которые способствуют экономическому росту на основе экономии ресурсов и экологического ущерба. Зеленая экономика играет важную роль в обеспечении устойчивого развития не только с экономической, но и с социальной и экологической точек зрения.

Ключевые слова: экономическая система, экология, жизнь человека, социальная справедливость, экономический рост, ресурс, безопасная экономика.

YASHIL IQTISODIYOT**Xoliyorov Urol Ikrom o'g'li****Andijon davlat texnik instituti, bank ishi va audit yo'nalishi,
4-kurs talabasi****e-pochta: urol2211@icloud.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, resurslarni tejash va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan innovatsiyalar, yashil texnologiyalar va qonuniy me'yorlar jarayonlari tahlil qilingan va ularga oid ma'lumotlar keltirilgan. Yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan ham barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tizim, ekologiya, inson hayoti, ijtimoiy adolat, iqtisodiy o'sish, resurs, xafvsiz iqtisodiyot.

Kirish

Yashil iqtisodiyot — bu barqaror rivojlanish va ekologik luvvotni qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiy faoliyat sifatida qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyot atamasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan unumli foydalanish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni birlashtirishga oid strategiyalarni ifodalaydi. Ushbu

iqtisodiyot modeli ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni bir-biriga bog'lagan holda iste'mol va ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilgan.


Mamlakatda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4-oktyabrda tasdiqlangan "2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" muhim dasturiy amal hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi.¹

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil iqlimning o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda o'zaro bog'liq muammolar va ehtiyojlar mavjudligini ko'rsatdi.

Muhokama va natijalar

Yashil iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo'nalish sifatida o'tgan asrning oxirida paydo bo'ldi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, uning bir yo'nalishi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko'plab boshqa sohalaridagi g'oyalarni o'z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog'liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog'liq iqtisodiyotni o'z ichiga oladi.



¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib **yashil iqtisodiyot** deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, ularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish.

Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotning joriy etilishi jahon iqtisodiyotida muhim o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarning bir-biriga bog'langanligi sababli, yashil iqtisodiyot bugungi kunda kelajak uchun barqaror rivojlanish yo'lida judayam muhimdir. Bu bilan birga, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda boshqaruv, siyosat, ilmiy tadqiqotlar va jamoatchilik ishtiroki hamda o'zaro aloqalar muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
2. Abdullaeva, D. (2020). "Yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanish yo'lida." O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
3. Toshpulatov, A. (2019). "Yashil iqtisodiyot va uning O'zbekistondagi ahamiyati." O'zbekiston iqtisodiyoti va tadbirkorlik jurnali, 3(2), 45-50.
4. Saidov, S. (2021). "Yashil iqtisodiyot: muammolar va yechimlar." O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
5. Кузнецов, И. (2018). "Зеленая экономика: концепция и практика." Издательство "Наука", Москва.
6. Петров, А. (2020). "Зеленая экономика как основа устойчивого развития." Журнал "Экономика и управление", 4(1), 12-18.

7. Сидорова, Е. (2019). "Экологические аспекты зеленой экономики." Издательство "Экономика", Санкт-Петербург.